

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi  
faoliyatini o‘rganish natijalari bo‘yicha  
MA’LUMOTNOMA**

**(2021 yil iyun)**

**Fuqaro murojaatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati va hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlariga 2020-2021 yillar davomida Jismoniy va yuridik shaxslardan (2020-yilda 4756 ta, 2021-yilning 1 choragida 6430 ta) murojaatlar kelib tushgan.

2020-yil (Ijro holati 4756 ta)

- qanoatlantirilgan murojaatlar 1874 ta (39,4 %);
- tushuntirish berilganlar 1892 ta (39,8%);
- ko‘rmasdan qoldirilganlar 38 ta (0,8 %);
- rad etilgan murojaatlar 65 ta (1,4 %);
- tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan 887 ta (18,6 %).

Fuqarolarning murojaatlari mazmun va mohiyatiga ko‘ra tahlil qilinganda, quyidagi yo‘nalishlarda tasniflandi:

- tadbirkorlik va imtiyozli kredit ajratish masalasida 790 ta ( 16,6 %);
- yoshlar bandligini ta‘minlash masalasida 1367 ta ( 28,7 %);
- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasida 564 ta (11,8 %);
- “Yoshlar” uylari masalasida 745 ta (15,7 %);
- yoshlarni sud zalidan ozod qilish (kafillik) masalasida 148 ta (3,1 %);
- talabalarning shartnoma to‘lovlari masalasida 1142 ta (24 %).

2021-yil (Ijro holati 6430 ta)

- qanoatlantirilgan murojaatlar 2953 ta ( 46 %);
- tushuntirish berilganlar 2129 ta (33,1 %);
- ko‘rmasdan qoldirilganlar 23 ta (0,3 %);
- rad etilgan murojaatlar 38 ta (0,6 %);
- tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan 1287 ta (20 %).

Fuqarolarning murojaatlari mazmun va mohiyatiga ko‘ra tahlil qilinganda, quyidagi yo‘nalishlarda tasniflandi:

- tadbirkorlik va imtiyozli kredit ajratish masalasida 1864 ta (29 %);
- yoshlar bandligini ta‘minlash masalasida 1743 ta (27,1 %);
- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasida 769 ta (12 %);
- “Yoshlar” uylari masalasida 789 ta (12,3 %);
- yoshlarni sud zalidan ozod qilish (kafillik) masalasida 112 ta (1,7 %);
- talabalarning shartnoma to‘lovlari masalasida 1153 ta (18 %).